



_____ hokimligi
*maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi*

_____ maktabgacha va
*maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
tarix fani o'qituvchisi*

_____ning
*20__-20__-o'quv yilida 5-sinflar uchun
IV chorak tarixi fanidan*

DARS

ISHLANMALARI

“TASDIQLAYMAN”

O‘IBDO‘ _____

**20__-20__-o‘quv yili 5-sinf tarixi fanidan IV chorak uchun taqvim
mavzu rejasi**

№	O‘tiladigan mavzular rejasi	Nazariy soat	Dars o‘tkazish muddati	Dars o‘tkazil gan sana
1.	O‘zbekistonning buyuk g‘alabaga qo‘shgan hissasi	1		
2.	Bir yodgorlik tarixi	1		
3.	Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)	1		
4.	BMT va dunyo bolalari	1		
5.	O‘zbekiston davlat mustaqilligining qo‘lga kiritilishi	1		
6.	O‘zbekiston iqtisodiyotidagi yutuqlar	1		
7.	Ma‘naviy-ma‘rifiy yuksalish	1		
8.	O‘zbekiston va jahon	1		
9.	7-Nazorat ishi	1		
10.	Dunyo xavfsizligiga tahdid	1		
11.	Dunyo xavfsizligiga tahdid	1		
12.	Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari	1		
13.	Ta‘lim-tarbiya Prezident faoliyatining bosh maqsadi	1		
14.	XXI asr – ilm-fan va taraqqiyot asri	1		
15.	8-Nazorat ishi	1		
16.	Yakuniy umumlashtiruvchi dars	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: O‘zbekistonning buyuk g‘alabaga qo‘shgan hissasi

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: o‘quvchilarda mavzuga oid bilim va tushunchalar hosil qilsih, darsga bo‘lgan qiziqishini ortirish, tarixiy an‘analar va boy ma’naviyatga asoslangan, mamlakatimizning buguni va kelajakdagi rivojlanishi, gullab yashnashiga o‘z hissasini qo‘shish tushunchalarini shakllantirish.

Tarbiyaviy: o‘quvchilarni mustaqil ishlashga o‘rgatish, bilimlarni boyitish va yangi bilim berish, vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, yaxshilik, kamtarlik tuyg‘ularini singdirish, ona Vatanimizga cheksiz mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi: o‘quvchilarning mavzuga oid bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish, berilgan rasmlar hamda savollar ustida ishlash orqali vatanga muhabbat hissini uyg‘otish.

O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Kommunikativ kompetensiya:

o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqan to‘g‘ri qo‘ya olish va javob berish.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi:

Tarixda yil hisobini o‘qiy olish, tarixiy darvlarga oid chizmalarni o‘qiy olish, rim raqamida yozilgan raqamlarni o‘qiy oladi. Miloddan avvalgi, era, milodiy yillar o‘rtasidagi farqlarni matematik amallar bilan yecha oladi.

Darsning metodi: og‘zaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.

Nazorat: o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e‘lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo‘limlar	Vaqti
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

O‘zbekiston xalqining mehnat jasorati. Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekiston hali sobiq Sovet Ittifoqi tarkibida edi. Binobarin, O‘zbekiston ham urushga tortildi.

O‘zbekiston frontni zarur qurol-yarog‘, o‘q-dori, oziq-ovqat va kiyim-kechak bilan ta‘minlab turdi. Urushda O‘zbekistondan 1 million 500 mingdan ortiq jangchi qatnashdi.

Aholidan yig'ilgan pul mablag'lari mamlakat mudofaa jamg'armasiga topshirildi. Sobiq Sovet Ittifoqi rahbarlari Germaniya bosib olishi mumkin bo'lgan hududlarda joylashgan sanoat korxonalarining yuzdan ortig'ini O'zbekistonga ko'chirdi. O'zbekiston ishchilarining fidokorona mehnatlari evaziga ular qisqa muddatlarda qayta tiklandi va front uchun zarur mahsulot ishlab chiqara boshladi. Ayni paytda 280 ta yangi korxona ham qurildi. O'zbekiston urush yillarida frontga 2100 ta samolyot va 1700 donadan ortiq samolyot motori kabi qurol-yarog' hamda harbiy anjomlar yetkazib berdi. O'zbekiston fabrikalari esa askarlarni issiq kiyim-kechaklar bilan ta'minlash ishiga katta hissa qo'shdi. Qishloq mehnatkashlarining jasorati. O'zbekistonning qishloq aholisi frontni zarur oziq-ovqat va kiyim-kechak bilan ta'minlashda ulkan fidoyilik ko'rsatdi. Erkaklar urushga safarbar etilgani uchun qishloq xo'jaligida ishchi kuchi yetishmay qoldi. Ularning o'rini ayollar va bolalar egalladi. Qishloq mehnatkashlari og'ir qiyinchiliklarni mardona yenga oldilar. Boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish ham ko'payib bordi. Xalqimiz ana shunday og'ir vaziyatda kunni kun, tunni tun demasdan, mashaqqatli mehnat qilib, front uchun, g'alaba uchun munosib hissa qo'shdilar. Ulkan saxovat. Gitler Germaniyasiga qarshi kurashda O'zbekiston aholisi ham ulkan saxovat ko'rsatdi. Chunonchi, ular mamlakat mudofaa jamg'armasiga 650 mln. so'mdan ziyod pul, 55 kg ga yaqin tilla va boshqa qimmatbaho buyumlar topshirdilar. Bu mablag'ga front uchun bronepoyezd, tank va samolyotlar yasaldi hamda ular frontga jo'natildi. Sobiq Sovet Ittifoqi hukumati mamlakat hududining urush harakatlari ketayotgan joylarida yashovchi tinch aholining bir qismini mamlakat ichkarisiga ko'chirdi. Shulardan bir milliondan ortig'i O'zbekistonga ko'chirib keltirildi. «Bu raqamlar, – deb ta'kidladi O'zbekiston Prezidenti Sh. Mirziyoyev, – boshimizdan kechirgan mudhish oqibatlarni hech qachon unutmaslikka chaqiradi».



O'zbekiston mehnatkashlarining mablag'i hisobiga yasalgan tanklar O'zbekiston xalqi ularni do'stona kutib oldi. Ularga g'amxo'rlik ko'rsatdi va yashash uchun o'z uyidan joy berdi. Oziq-ovqati va kiyimkechagini ular bilan baham ko'rdi. Ko'chirib kelingan bolalarning asosiy qismi bolalar uylariga joylashtirildi. Besh yarim mingdan ortig'ini esa bag'rikeng, saxovatpesha o'zbek xonadonlari farzandlikka oldilar. Bunday saxovatpesha o'zbek xonadonlaridan biri toshkentlik Shomahmudovlar oilasi edi. Bu oila turli millatga mansub 13 nafar bolani farzandlikka oldi. Ularni parvarishlab, tarbiyalab voyaga yetkazdi. Bu hodisa o'zbek xalqi bag'rikengligi, saxovatpeshaligining yorqin namunasi edi. O'zbekistonlik askarlarning frontdagi jasoratlari. Ikkinchi jahon urushi frontlariga yuborilgan bir yarim milliondan ko'proq o'zbekistonlik askarlar dushmanga qarshi mardona jang qildilar. Beshafqat jang maydonlarida mardlik va matonat ko'rsatgani uchun ularning 280 nafari «Sovet Ittifoqi Qahramoni» unvoniga, 82 nafari esa uchala darajadagi «Slava» («Shoh-shuhrat») ordeniga sazovor bo'ldi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida 500 mingdan ortiq o'zbekistonlik askar halok bo'ldi. 60 mingdan ortiq askar esa nogiron, mayib-majruh bo'lib qoldi. Halok bo'lganlardan biri general-mayor Sobir Rahimov edi. S. Rahimov 1902-yilda Toshkent shahrida tug'ildi. 1925-yildan harbiy xizmatda bo'ldi. Ikkinchi jahon urushida dviziyaga qo'mondonlik qildi. Polsha davlatining hududini Germaniyadan ozod etish uchun olib borilgan jangda 1945-yilning 26-martida – fashistlar Germaniyasining to'la tor-mor etilishiga atigi 45 kun qolganida qahramonlarcha halok bo'ldi. 1965-yilning 6-mart kuni general S. Rahimovga Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoni berildi. Keyinchalik unga Toshkent shahrida haykal o'rnatildi.



«Motamsaro ona» haykali

Xotira abadiydir. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning tashabbusi bilan Ikkinchi jahon urushi frontlarida halok bo'lganlarning xotirasini abadiylashtirish uchun O'zbekistonda Gitler Germaniyasi ustidan qozonilgan g'alaba kuni – 9-may umummilliy «Xotira va qadrlash kuni» deb belgilandi.

1999-yilda Toshkentning Bosh maydoni – Mustaqillik maydoni yonida «Xotira maydoni» majmuasi bunyod etildi. Bu yerdagi yodgorlik devorlariga kitob betlari shakli o'rnatildi. Ularga Ikkinchi jahon urushida halok bo'lgan o'zbekistonlik askarlarning nomlari bitildi. Majmuada «Motamsaro ona» haykali ham o'rnatildi. Haykalda urushda o'z farzandini yo'qotgan onaning g'am-

g'ussasi aks etgan. Haykal yonida urushda halok bo'lganlar xotirasi uchun mangu olov yonib turadi. Buyuk g'alabani 75 yilligi. O'zbekiston Prezidenti Sh. Mirziyoyev onalar jasorati haqida quyidagi hayotiy misolni keltirdi: «Gap urush qahramonlari haqida ketar ekan, tabarruk Ona siymosi ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi. Chunki urushning barcha azobuqubatlari eng ko'p tortgan insonlar mushtipar onalarimizdir. o'zimning isboti uchun bir misol keltirmoqchiman. Toshkent viloyati, Zangiota tumanidagi Xonobod qishlog'ida Zulfiya aya Zokirova ismli bir mo'tabar onaxon yashab o'tganlar. Tom ma'noda buyuk bu insonning jasoratini ta'riflashga til ojiz. Zulfiya aya Zokirova Ikkinchi jahon urushida bir emas, besh azamat o'g'lidan – Isoqjon, Ahmadjon, Mamajon, Vahobjon, Yusufjon ismli aziz farzandlaridan judo bo'lgan. O'zingiz ayting, qadrli do'stlar, har qanday odamni yiqitib, yakson qiladigan taqdirning bunday beshafqat zarbasiga bardosh berish mumkinmi? Lekin Zulfiya Zokirovadek matonatli, qahramon o'zbek ayoli bunga bardosh bera oldi. Shunday fojiali qismatga besh marta ko'ksini qalqon qilib, besh marta ham mardona oyoqqa turdi. Buning uchun odamda qanchalik kuchli iroda, qanchalik metin sabr-bardosh bo'lishi kerak! Yovuz urush tufayli ayaning to'rt kelini beva, besh nabirasi yetim bo'lib qoldi. Uning o'zi esa bir umr motamda yashadi. Lekin hech qachon umidsizlikka tushmadi. O'g'illarining so'nmas xotirasi, yorug' kunlar yodi bilan, kelinlari, nabiralarining hayoti, orzu-umidlari bilan yashadi. Mana, yoshlarimiz, farzandlarimiz kimdan namuna va o'rnak olishlari kerak!

«Yaxshilar yodi hech qachon unutilmaydi», deydi xalqimiz. Biz ezgu niyat bilan barpo etadigan G'alaba bog'i, markaziga Zulfiya Zokirova va uning frontdan qaytmagan besh o'g'li, sadoqatli kelinlari xotirasiga atab muhtasham haykal o'rnatib, unga «Matonat madhiyasi» deb nom bersak, nima deysizlar?» 2020-yil 9-mayda fashistlar Germaniyasi ustidan qozonilgan buyuk g'alabani 75 yilligi xalqaro miqyosda nishonlandi. Bu

qutlug' sanaga bag'ishlab, O'zbekiston xalqining buyuk g'alabaga qo'shgan munosib hissasini aks ettiruvchi kitob-albom nashr etildi. Toshkentda esa G'alaba bog'i bunyod qilindi. Siz va siz qatori O'zbekistonning, qolaversa urush domiga tortilgandavlatlarning barcha fuqarolari kimlarning jasorati tufayli Buyuk g'alabadan so'ng o'tgan yillar mobaynida urush balosini ko'rmay, oilasi bilan tinch zamonda yashayotganini bilishi va qadriga yetishlari lozim.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

1. Urush yillarida o'zbekistonlik ishchilar va dehqonalar ko'rsatgan mehnat jasoratlari haqida so'zlab bering.
2. O'zbekiston xalqining urush yillarida ko'rsatgan bag'rikengligi va saxovatpeshaligi haqida nimalarni bilib oldingiz?
3. O'zbekistonlik askarlarning jang maydonlarida ko'rsatgan qahramonliklariga misollar keltiring.
4. Ikkinchi jahon urushida halok bo'lgan o'zbekistonlik askarlar xotirasini abadiylashtirish borasida qanday ishlar amalga oshirildi?
5. Ikkinchi jahon urushida besh farzandini yo'qotgan Zulfiya Zokirova haqida Prezident Sh. Mirziyoyev bildirgan fikrlarning mazmuni haqida so'zlab bering.

V. O'quvchilarni rag'batlantirish. darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'bat kartochkalari bilan rag'batlantiriladi.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: yangi mavzuni to'liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O'IBDO': _____ (imzo) _____ (sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Bir yodgorlik tarixi

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: o'quvchilarda mavzuga oid bilim va tushunchalar hosil qilsih, darsga bo'lgan qiziqishini ortirish, tarixiy an'analar va boy ma'naviyatga asoslangan, mamlakatimizning buguni va kelajakdagi rivojlanishi, gullab yashnashiga o'z hissasini qo'shish tushunchalarini shakllantirish.

Tarbiyaviy: o'quvchilarni mustaqil ishlashga o'rgatish, bilimlarni boyitish va yangi bilim berish, vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, yaxshilik, kamtarlik tuyg'ularini singdirish, ona Vatanimizga cheksiz mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi: o'quvchilarning mavzuga oid bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish, berilgan rasmlar hamda savollar ustida ishlash orqali vatanga muhabbat hissini uyg'otish.

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Kommunikativ kompetensiya:

Milliy va umummadaniy kompetensiya:

umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlarini (urf-odatlar, marosimlar, milliy madaniy an'analar va h.k.) hurmat qilish.

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:

shaxs sifatida doimiy ravishda o'z-o'zini rivojlantirish, ma'naviy va intellektual kamolotga intilish.

Darsning metodi: og'zaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.

Nazorat: o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so'rash: a) Savol – javob o'tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

O'zbeklar – bag'rikeng xalq. Avvalgi mavzuda aytilganidek, sobiq Sovet davlati dushman bosib olishi mumkin bo'lgan hududlardagi aholini urushdan xoli joylarga ko'chira boshladi. Ularning bir milliondan ortig'i, shu jumladan, 200 ming nafar bola O'zbekistonga olib kelindi. Rahmatli yozuvchi Rahmat Fayziyning «Hazrati inson» kitobida keltirilgan quyidagi parchani o'qisangiz, o'zbek xalqining bag'ri naqadar keng

bo'lganiga yana bir bor ishonch hosil qilasiz: «Mana, bugun qon-qarindoshlarning go'daklari, mudhish urushning yetimchalari kutib olindi. Mahkam aka bilan Bahriniso opa tramvaydan tushganda vokzal maydoni odamlar bilan to'la edi. Bir ayol yonidagi ayolga dedi:

– Gul-mul olib chiqish ham esga kelmabdi-ya, bola bechoralarning ko'ngli ko'tarilmidi?

– Gul ko'ngliga sig'adi deysanmi, aylanay. Gapga bir rus kishi qo'shildi:

– Ular hozir bir quchoq gul emas, gulsiz quchoqning o'ziga zor, singlim.

Shu onda poyezd vokzaliga Yo'ldosh Oxunboboyev kirib keldi. Mahkam aka bilan Bahriniso opa qancha harakat qilib og'iz juftlamasinlar, Yo'ldosh Oxunboboyevga bola asrab olishga kelganliklarini ayta olishmadilar. Keyin Mahkam aka o'z fikrini yuqorida ikki ayolning gapiga aralashgan rus kishiga aytdi:

– Biz, agar berishsa, bolalardan birini asrab olmoqchi edik.

– Xalqimizning bag'ri keng, himmati zo'r. O'zbek oilalari ularni bag'rimizga olamiz, ota-onalik qilamiz deyishyapti, deb yana kimdir suhbatga aralashdi.

– Ukrain bolasini bag'rimizga olsak, qavm-qarindoshlarimizga quchoq ochgan bo'lamiz. Rus o'g'lonni erkalatsak, aziz do'stlarimizga mehr-sadoqatimiz bo'ladi. Moldavan go'dagini voyaga yetkazsak, vatandoshimizning yarasiga malham qo'ygan bo'lamiz, dedi ayollardan biri.

– Haq gap, singlim, – dedi bir chol. Mahkam aka bolalar uyida bir sepkilli bola oldida to'xtadi va uning qo'llarini ushladi. Bola ismi Vitya ekanligini aytdi va uni o'g'il qilib olish uchun uyiga olib ketdi. Vitya Mahkam aka va Bahriniso onaga yo'lda ko'rgan voqealari, shuningdek, unga o'rganib qolgan Seryoja degan bola mingan vagonning dushman samolyotlari tashlagan bomba tagida qolib ketgani va shu vagondagi barcha odam o'lib ketgani haqida so'zlab berdi. Bahriniso opa Vityani cho'miltirdi, yuvib-taradi. Qornini to'yg'azdi Vitya Mahkam akaga qarab: «Sizni papa (ota) desam maylimi?» – dedi.

– Men seni o'g'il qilib oldim. O'zbekchada «papa» – «dada», «mama» esa «oyi» bo'ladi, deb tushuntirdi Mahkam aka. Vitya o'rnidan turib, o'zini Mahkam akaning bag'riga otdi. Bo'ynidan quchoqlab, yuzlaridan o'pdi. Choy olib kirgan Bahriniso opa nima bo'layotganini tushuna olmay ostonada turib qoldi. Mahkam aka ko'zidan chiqqan yosh donalarini sezdirmay artdi. Vitya Mahkam akaning tizasidan tushib Bahriniso opaning yoniga bordi:

– Men bugun mehmon, ertadan boshlab dadamning o'g'illariman. Hech haydamaydilar. Siz ham haydamaysizmi, – dedi.

– Nima deganing bu?

– Rostini ayting, haydamaysizmi?

– Yo'q-yo'q, aslo haydamayman.

– Sizni oyi desam maylimi?

— Voy tillaringdan o'rgilay. – Bahriniso opa shunday deb, bolag ikki qo'lini uzatdi. Vitya esa uning bag'riga otildi. Bahriniso opa ovoz chiqarib yig'lab yubordi. Vitya qo'rqib, yana unga yopishdi.

– Qo'rqma o'g'lim, u xursandligidan yig'ladi, – deb Mahkam aka Vityani yupatdi.

Bu kichkinagina hikoya urush tufayli Vityaga o'xshab yetim qolganlar hayotidan bir sahifa, xolos. Mahkam aka va Bahriniso opaga o'xshash saxovatpesha insonlar juda ko'p bo'lgan. O'zbekiston hukumati va o'zbek xonadonlari urush davri yetimlarining boshini

silagan. Hech kim mehrdan chetda qolmagan. «Xalqlar do‘stligi» maydonidagi bir yodgorlik. Toshkent shahrida «Xalqlar do‘stligi» deb ataluvchi maydon bor. Bu maydonda urush davrida o‘zbek xalqi namoyon etgan, boshqa xalqlar esa tan bergan odamiylik, insonparvarlik va saxovatpeshalikning yuksak ramzi bo‘lgan bir yodgorlik o‘rnatilgan. U «Xalqlar do‘stligi yodgorligi» deb ataladi. Yodgorlik 1942-yilda O‘zbekistonga ko‘chirib kelingan yetim bolalardan 13 nafarini farzandlikka olib, oq yuvib, oq taragan Shomahmudovlar oilasi sharafiga bunyod etilgan. Oila boshlig‘i Shoahmad Shomahmudov (1890–1970) va uning turmush o‘rtog‘i Bahriniso Akramova (1903–1987) temirchilik birlashmasida mehnat qilganlar. Ular farzandlikka olgan bolalarni o‘z familiyasiga o‘tkazganlar va o‘zbekcha ism berganlar. Zero, Habiba, Vova va Shuhrat rus bo‘lgan. Hamidulla – ukrain; Rafiq va Rahmatulla – tatar; Xolida – moldavan; Samug‘ – chuvash; Yo‘ldosh va Ergash – yahudiy; Halima – qozoq; Qoraboy, Ne‘mat, Muazzam, Hakim va Ulug‘beklar esa o‘zbek bo‘lishgan. Urushdan so‘ng yana 3 nafar o‘zbek bolani asrab olishgan. Ularning hammasini tarbiyalab voyaga yetkazishgan. Sh. Shomahmudov va B. Akramovala «Hurmat belgisi» ordeni bilan mukofotlanganlar. Bahriniso opaga «Qahramon ona» unvoni ham berildi. Ko‘plab yetim qolgan bolalarni farzandlikka olganlar birgina Shomahmudovlar oilasi emas edi. Samarqandlik Samadovlar oilasi ham yuksak insonparvarlik namunasini ko‘rsatdi. Oila boshlig‘i Hamid Samadov (1910–2002) urush qatnashchisi. Vatan ozodligi yo‘lida mardlarcha jang qilgan inson.



«Xalqlar do‘stligi» maydonidagi yodgorlik

U 1944-yilda jang maydonida yaralanib, nogiron bo‘lib qoldi va shu sababli uyiga qaytib keldi. H. Samadov va turmush o‘rtog‘i Sanobar ayalar oilasi ham turkman, tojik, rus, belarus, tatar va o‘zbek millatiga mansub 13 nafar yetim bolani farzandlikka olishgan. Bundan tashqari, qarindoshlarining yetim qolgan 3 nafar, o‘zlarining 6 nafar (jami 22 nafar) farzandini tarbiyalab, voyaga yetkazishdi. Ha, o‘zbeklar ana shunday bolajonligi va bag‘rikengligi bilan shuhrat qozongan xalq. O‘zbekiston xalq shoiri, akademik G‘afur G‘ulom o‘zbekning bag‘rida, issiq uyida boshpana topgan urush davrining yetim bolalariga atab mashhur «Sen yetim emassan» she‘rini yozgan edi:



G'afur G'ulom

Ulug' jang kunidir,
Jangki, beomon,
Lashkar degan axir,
Bexatar bo'lmas,
Otang o'lgan bo'lsa,
Qayg'urma, qo'zim,
Sen yetim emassan,
Uxla, jigarim.
Yetimlik nimadir –
Bizlardan so'ra,
Men yetim o'sganman,
Oh, u yetimlik...
Voy bechora jonim,
Desam arziydi.
Boshimni silashga

Bir mehribon qo'l
Bir og'iz shirin so'z
Nondek arzanda.
Cho'chima, jigarim,
O'z uyingdasan,
Bu yerda:na g'urbat
na ofat,
na g'am.
Bunda bor:
harorat,
muhabbat,
shafqat
Va mehnat nonini
Ko'ramiz baham.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

1. O'zbek xalqining bag'rikengligi nimada?
2. Nega mamlakat ichkarisida yashovchi tinch aholi uning chekka o'lkalariga, jumladan, O'zbekistonga ham ko'chirib kelindi?
3. Ko'chirib kelinganlarni vokzalda kutib olish uchun O'zbekiston rahbari Y. Oxunboboyevning shaxsan o'zi chiqqanligi nimani anglatadi?
4. Shomahmudovlar va Samadovlar oilasining yuksak insoniy fazilatlarini misollarda bayon eting.
5. Nega hozirgi tinch-omon, to'kinlik davrida Mehribonlik uylari hamon mavjud?
6. G'. G'ulomning «Sen yetim emassan» she'ridan keltirilgan parchani yod oling.

V.O'quvchilarni rag'batlantirish. darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'bat kartochkalari bilan rag'batlantiriladi.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: yangi mavzuni to'liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O'IBDO': _____ (imzo) _____ (sana)

Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o‘zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.

Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi


51 listdan iborat tarix fanidan 5-sinf IV chorak konspektini to‘loq holda olish uchun telegramdan yozing.



Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

**To‘lov uchun: UZCARD *880*9860230104973329*summa#
Plastik egasi Nabiyev Zokirjon**



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To‘liq holda olganingizdan so‘ng:
Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalarga tarqatmang.

**OMONATGA
HIYONAT QILMANG.**

Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!

Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'g'arak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**